

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JALILOV HAFIZ NAIMOVICH

**OLIIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARIDA OILA
VA KASB MUVOZANATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi
(psixologiya fanlari)**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent — 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Jalilov Hafiz Naimovich

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlari..... **3**

Жалилов Хафиз Наимович

Психолого-педагогические особенности баланса семьи и профессии преподавателей высших образовательных учреждений..... **21**

Jalilov Hafiz Naimovich

Pedagogical-psychological features of work-life balance among teachers of higher education institutions..... **42**

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... **46**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JALILOV HAFIZ NAIMOVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARIDA OILA
VA KASB MUVOZANATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi
(psixologiya fanlari)**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent–2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/P535 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (psi-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Abdurasulov Rustam Abduraimovich**
psixologiya fanlari doktori, professor

Do'stmuhammedova Shoirakbarovna
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Phd.03/30.12.2021. P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» ___soat___dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27- uy.

Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27- uy. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil « ___ » _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori, dotsent

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv va yangi texnologiyalarning jadallashuvi inson shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyati orasida disproporsiya – nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda, ayniqsa oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar orasida sog'lom oila va kasb muvozanatini topish dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotda ishchilarning 61 foizi o'z ishidagi stressdan aziyat chekayotganini bildirgan. Ish faoliyatidagi stresslar, ko'pincha ish vaqtining me'yorida ortishi natijasida oila va kasb muvozanati bilan bog'liq muammolarga, ya'ni, shaxsiy hayot uchun vaqt yetishmasligi, «beyondlashuv», «birgalik effekti»ning yo'qolishiga olib kelishi¹ qayd etilgan. Shuningdek, 2017-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan Yevropaning 30 ta davlatida jami 70 000 nafar aholi vakillari orasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ishchilarning 36 foizi o'z ishi shaxsiy hayotiga xalaqit berayotganini ma'lum qilgan². Mazkur ma'lumotlar shaxslar orasida sog'lom oila va kasb muvozanatiga erishish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolayotganidan dalolat beradi.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida oila va kasb muvozanatining salbiy holatlari (oilakasb nizolari, ishdagi stress, depressiya, charchash va boshq.) profilaktikasi hamda oila va kasb muvozanatini yaxshilash yuzasidan ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Oila va kasb muvozanatini ta'minlash uchun turli xil dasturlarni amalga oshirish, jumladan, ota-ona ta'tillari, moslashuvchan mehnat tartibi, bolalar va qariyalarni parvarish qilishni qo'llab-quvvatlash, ishdagi stresslarning oldini olish, ish joyida psixologik qulaylikni va farovonlikni oshirish, masofadan ishlash va moslashuvchan mehnat tartibini qo'llab-quvvatlash muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda xorijiy oliy o'quv yurtlari hamkorligida yangi muassasalar ochish, xususiy oliy o'quv yurtlari va xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarini ochishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. 2016-yilda O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni 77 tani tashkil etgan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 211 taga yetdi. Aniqrog'i, xususiy oliy o'quv yurtlari soni 65 taga, xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari 30 taga, davlat oliy ta'lim muassasalari soni 116 taga yetdi³. Shu nuqtai nazardan, professor-o'qituvchilarning ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradigan strategiyalarni aniqlash, ularning oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zarurati yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ American Psychological Association. (2021). Stress in America™ 2021: Pandemic Stress One Year On. Retrieved from <https://www.apa.org/news/press/releases/stress/2021/one-year-pandemic-stress.pdf>

² International Labour Organization. (2017). Working anytime, anywhere: The effects on the world of work. Retrieved from https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/dgreports/dcomm/publ/documents/publication/wcms_570443.pdf

³ Respublika oliy ta'lim muassasalari to'g'risida statistik ma'lumotlar, 2023, OTMLar soni, <https://stat.edu.uz/>

to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 8 oktyabrda PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz psixolog olimlaridan O.A.Abdusattorova, F.A.Akramova, R.X.Dushanov, V.M.Karimova, X.K.Karimov, G.Niyozmetova, T.B.Norimbetov, U.D.Qodirov, Z.A.Rasulova, N.Salayeva, R.S.Samarov, N.A.Sog'inov, M.M.Umarova, G.T.Yadgarova, Y.A.Yakubov, G'B.Shoumarov va boshqalar tomonidan o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, er-xotnlarda nikohdan qoniqqanlik, er-xotin nizolari, oilaviy rollar taqsimoti, oilalardagi shaxslararo munosabat xususiyatlari, oilaga ko'rsatiladigan psixologik xizmat masalalari ilmiy tadqiq etilgan bo'lsa, R.B.Abduraxmonova, D.N.Arzikulov, Y.M.Asadov, R.Z.Asomova, F.S.Ismagilova, S.X.Jalilova, Sh.B.Saparov, B.N.Sirliyev va boshqa olimlar kasbiy faoliyat, kasbiy shakllantirish, kasbiy xususiyatlar rivojlanishining o'ziga xosliklari, kasbiy kamolot va uning bosqichlari kabi masalalar yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan. Biroq O'zbekistonda oila va kasb muvozanatining professor-o'qituvchilar faoliyatiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar deyarli olib borilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlaridan S.A.Biryukova, N.A.Gaponenko, N.V.Golovanova, A.K.Klimova, T.N.Klyachko, I.M.Kuzina, N.V.Kuzina, E.V.Lvina, N.A.Rozhkova, N.N.Soboleva, T.A.Tikhomirova, E.V.Chirkova va boshqalarning tadqiqotlarida oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlari ma'lum darajada ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan C.L.Adkins, T.Allen, M.Apperson, P.Brough, J.P.Campbell, S.C.Clark, E.Demerouti, A.Felstead, J.H.Greenhaus, D.E.Guest, B.A.Gutek, J.M.Haar, E.J.Hill, B.L.Janzen, T.Kalliath, O.M.Karatepe, R.F.Kelly, J.D.Lee, L.Lesnard, J.Lester, S.Lewis, M.McDonald, S.L.Munn, K.T.Smith, L.Wu va boshqalar tomonidan oila va kasb muvozanati, ishdan qoniqish, ish samaradorligi va boshqa omillarga ta'sirining psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining

«Psixologiya fani va uning dolzarb muammolarini tadqiq qilishning strategik yoʻnalishlari» mavzusidagi ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan (2021-2023-yy.).

Tadqiqotning maqsadi oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarida oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlarini oʻrganish asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarda oila va kasb muvozanatining namoyon boʻlishida ichki va tashqi (oilaviy ahvoli, oilaviy qoʻllab-quvvatlash, ish joyining qoʻllab-quvvatlashi, ish soatining koʻpligi, dam olish kunining kamligi) omillarning differensial farqlarini asoslash;

professor-oʻqituvchilarda oila va kasb muvozanatining darajaviy ifodalanishida xodimning ota-onalik, er-xotinlik masʼuliyatining yuqori talabli kasbiy faoliyat bilan bogʻliq ish yuklamasi uchun vaqtni ratsional taqsimlashiga taʼsiri tufayli «turmush qurgan» va «turmush qurmagan» mezonlari boʻyicha farqlarni dalillash;

oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarining oila va kasb muvozanati «kasb-oila» va «oila-kasb» nizolarning destruktiv hamda konstruktiv natijasini shaxsiy xususiyatlar hamda kurash strategiyasiga bogʻliq ravishda ish samaradorligiga integratsiyasi tufayli ishdan qoniqish hissiga taʼsir etishini isbotlash;

oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarida oila va kasb muvozanatini muvofiqlashtirishda shaxsning oʻziga emotsional munosabatini barqarorlashtirish, oʻz-oʻziga beradigan bahoni adekvatlashtirish, stressga chidamlilik sifatleri, muloqot koʻnikmalarini shakllantirish muhimligiga koʻra kompleks psixotaʼlimni oʻzida mujassamlashtirgan manzilli psixokorreksion dasturni qoʻllash samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarida oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlarini oʻrganish jarayoni tanlangan boʻlib, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidan 165 nafar, Buxoro davlat pedagogika institutidan 105 nafar va Nukus davlat pedagogika institutidan 180 nafar professor-oʻqituvchi, jami 450 nafar respondent jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarida oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, R.G.Netemeyer, J.S.Boles, R.McMurrianning «Kasb-oila nizosi» soʻrovnomasi, A.H.Brayfield, H.F.Rothening «Ishdan qoniqish» soʻrovnomasi, P.Brough, C.Timms, M.P.OʻDriscoll, T.Kalliath, O.Siu, C.Sit, D.Loning «Oila va kasb muvozanati» metodikasi, L.J.Williams, S.E.Anderson, P.D.Lynch, R.Eisenberger, S.Armelivaning «Ish samaradorligi» metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan: K.Pirson r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezone, SPSS 28 (Ijtimoiy fanlar uchun statistik paket 28.0) dasturi yordamida tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarda oila va kasb muvozanatining namoyon boʻlishida ichki va tashqi (oilaviy ahvoli, oilaviy qoʻllab-quvvatlash, ish

joyining qo'llab-quvvatlashi, ish soatining ko'pligi, dam olish kunining kamligi) omillarning ta'siri kuchliligi tufayli differensial farqlarning mavjudligi dalillangan;

professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanatining darajaviy ifodalanishida xodimning ota-onalik, er-xotinlik mas'uliyatini yuqori talabli kasbiy faoliyat bilan bog'liq ish yuklamasi uchun vaqtni ratsional taqsimlashiga ta'siri tufayli «turmush qurgan» va «turmush qurmagan» mezonni bo'yicha ham ustuvor farqlarning mavjudligi dalillangan;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining oila va kasb muvozanati «kasb-oila» va «oila-kasb» nizolarning destruktiv hamda konstruktiv natijasini shaxsiy xususiyatlar hamda kurash strategiyasiga bog'liq ravishda ish samaradorligiga integratsiyasi tufayli ishdan qoniqish hissiga ta'sir etishi isbotlangan;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida oila va kasb muvozanatini muvofiqlashtirishda shaxsning o'ziga emotsional munosabatini barqarorlashtirish, o'z-o'ziga beradigan bahoni adekvatlashtirish, stressga chidamlilik sifatleri, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muhimligiga ko'ra kompleks psixota'limni o'zida mujassamlashtirgan manzilli psixokorreksion dasturni qo'llash samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim professor-o'qituvchilarida oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi adekvat psixodiagnostik metodika va so'rovnomalar amaliyotga tatbiq qilingan;

oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilari oila va kasb muvozanati ko'rsatgichini yaxshilash bo'yicha trening dasturi tayyorlangan va uning samaradorligi baholangan;

oliy ta'lim professor-o'qituvchilarida oila va kasb muvozanatini saqlashning psixologik xususiyatlari aniqlanib, tadqiqot natijalari asosida xulosalar ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatda qo'llangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash «MS EXCEL», «SPSS 28» dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va shu asosda psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim professor-o'qituvchilari oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlarning to'ldirilgani, unda ko'rsatilgan muammo hamda uni yechish uchun taklif etilgan ilmiy tushuncha va tasavvurlarni kengaytirishi, olingan ilmiy xulosalardan manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan va qoʻllangan psixologik tashxis vositalari, psixologik trening mashgʻulotlari tizimidan «Oila psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Kasbiy psixologiya» fanlari boʻyicha nazariy va amaliy mashgʻulotlar oʻtkazish, fanlaridan oʻquv qoʻllanma va darsliklar tayyorlash, psixologlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari hamda taʼlim muassasalarida psixologik xizmat koʻrsatish samaradorligini taʼminlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarida oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlariga oid muammoni tadqiq etish natijasida:

oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarda oila va kasb muvozanatining namoyon boʻlishida ichki va tashqi (oilaviy ahvoli, oilaviy qoʻllab-quvvatlash, ish joyining qoʻllab-quvvatlashi, ish soatining koʻpligi, dam olish kunining kamligi) omillarning taʼsiri kuchliligi tufayli differensial farqlarning mavjudligini dalillashga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-35-a-sonli buyrugʻi bilan «Ontogenez psixologiyasi va pedagogik psixologiya» modulli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-35-m-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarida oila va kasb muvozanati namoyon boʻlishiga taʼsir koʻrsatuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash imkoniyati yaratilgan;

professor-oʻqituvchilarning oila va kasb muvozanatining darajaviy ifodalanishida xodimning ota-onalik, er-xotinlik masʼuliyatini yuqori talabli kasbiy faoliyat bilan bogʻliq ish yuklamasi uchun vaqtni ratsional taqsimlashiga taʼsiri tufayli «turmush qurgan» va «turmush qurmagan»lik mezonlari boʻyicha ham ustuvor farqlarning mavjudligini dalillashga oid maʼlumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-35-a-sonli buyrugʻi bilan «Ontogenez psixologiyasi va pedagogik psixologiya» modulli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-35-m-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, oila va kasb muvozanatining oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilar ish samaradorligi va ishdan qoniqish hissiga taʼsir xususiyatlarini tahlil qilish mexanizmlari takomillashtirilgan;

oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarining oila va kasb muvozanati «kasb-oila» va «oila-kasb» nizolarning destruktiv hamda konstruktiv natijasini shaxsiy xususiyatlar hamda kurash strategiyasiga bogʻliq ravishda ish samaradorligiga integratsiyasi tufayli ishdan qoniqish hissiga taʼsir etishini isbotlashga oid maʼlumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-35-a-sonli buyrugʻi bilan «Ontogenez psixologiyasi va pedagogik psixologiya» modulli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-35-m-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarda oila va kasb muvozanatining

oila-kasb va kasb-oila tizimidagi nizolar bilan aloqadorligining diagnostik imkoniyatlari kengaytirilgan;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarida oila va kasb muvozanatini muvofiqlashtirishda shaxsning o'ziga emotsional munosabatini barqarorlashtirish, o'z-o'ziga beradigan bahoni adekvatlash, stressga chidamlilik sifatleri, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muhimligiga ko'ra kompleks psixota'limni o'zida mujassamlashtirgan manzilli psixokorreksion dasturni qo'llashning samaradorligini asoslashga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-35-a-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi va pedagogik psixologiya» modulli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM-35-m-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oila va kasb muvozanatini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqish va amaliyotdagi samaradorligini asoslash usullari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy konferensiyada muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish chop etilgan. Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 1 ta xalqaro OAK, 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsion tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan; dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejaları bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tadbiqu va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oila va kasb muvozanati pedagogik-psixologik muammo sifatida**» deb nomlangan birinchi bobi mazmuni ilmiy-nazariy tahlil asosida muammoning o'rganilganlik darajasini yoritishga qaratilgan bo'lib, Sharq mutafakkirlarining (Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Yusuf xos Xojib, Alisher Navoiy va boshq.) pedagogik-psixologik g'oyalari, dissertatsiya mavzusi yo'nalishida xorijiy va o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari tahlil etilgan, oila va kasb muvozanati muammosini o'rganish sohasida zamonaviy psixologiya fanida to'plangan tajribalar umumlashtirilgan. Sharhlangan materiallarga tayanilgan holda dissertatsiya ishining mazkur qismida oilaviy va

kasbiy munosabatlar muammolari qadimdan ilm-fan uchun alohida qizish uygʻotgan mavzu boʻlib, bu yoʻnalishda asosan oilaviy rollar taqsimoti, er-xotin nizolari, oilalardagi shaxslararo munosabat xususiyatlari, kasbiy faoliyat, kasbiy shakllantirish, kasbiy xususiyatlar rivojlanishining oʻziga xosliklari maxsus oʻrganilgan boʻlishiga qaramay, aynan oila va kasb muvozanati va uning shaxs ish samaradorligi, ishdan qoniqish hissi, kasb-oila va oila-kasb nizolari bilan aloqadorligi masalasi alohida kompleks tadqiqot predmeti boʻlmagani haqida xulosaga kelingan, bu mazkur yoʻnalishdagi ishning dolzarbligini oshiradi.

«Oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarda oila va kasb muvozanatining pedagogik-psixologik xususiyatlarini eksperimental oʻrganish» deb nomlangan ikkinchi bobda oila va kasb muvozanatining namoyon boʻlish darajasini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalarning umumiy tavsifi bayon qilingan, oila va kasb muvozanatini ishdan qonish, ish samaradorligi hamda kasb-oila va oila-kasb nizolari bilan aloqadorligini asoslashga eʼtibor qaratilgan.

Dissertatsion tadqiqot ishida shaxsda oila va kasb muvozanatini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalarning mazmuni, ularni qoʻllash tartibi hamda natijalar tahliliga doir materiallar keltirilgan. Mazkur psixodiagnostik metodikalar orqali oila va kasb muvozanatining shaxsning jinsi, oilaviy ahvoli bilan oʻzaro aloqadorligini hamda hududiy farqlarni tekshirishga harakat qilindi. Dastlab tadqiqot ishi doirasida ayol va erkak hamda turmush qurgan va turmush qurmagan professor-oʻqituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasidagi farqlarni tekshirishga eʼtibor qaratdik. Buning uchun professor-oʻqituvchilar guruhida «Oila va kasb muvozanati» metodikasi oʻtkazilib, empirik maʼlumotlar toʻplandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Professor-oʻqituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasi, Student t-mezoni asosida, n=450

Respondentlar	N	M	SD	t
Ayol	252	3.40	0.95	6.73***
Erkak	198	4.73	1.16	
Turmush qurgan	342	4.06	1.20	3.54***
Turmush qurmagan	108	5.08	1.22	

Izoh: p < 0.05; **p < 0.01; ***p < 0.001

M – Oʻrtacha arifmetik qiymat, SD – Standart ogʻish, t-statistik farq koʻrsatkichi.

Jadval natijalariga koʻra, oila va kasb muvozanati darajasi erkak professor-oʻqituvchilarda oʻrtacha arifmetik qiymat M=4.73ni, standart ogʻish darajasi SD=1.16ni, ayol professor-oʻqituvchilarda oʻrtacha arifmetik qiymat M=3.40ni, standart ogʻish darajasi SD=0.95ni tashkil qildi. Shuningdek, turmush qurgan professor-oʻqituvchilarda oʻrtacha arifmetik qiymat M=4.06ni, standart ogʻish darajasi SD=1.20ni, turmush qurmagan professor-oʻqituvchilarda oʻrtacha arifmetik

qiymat $M=5.08$ ni, standart og'ish darajasi $SD=1.22$ ni ko'rsatdi. Bundan ko'rinib turibdiki, erkak professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasi ayol professor-o'qituvchilarga nisbatan hamda turmush qurmagan professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati ko'rsatkichi turmush qurgan professor-o'qituvchilarga nisbatan yuqoriroq ekan.

Tadqiqotda ayol professor-o'qituvchilarda oila va kasb muvozanati darajasining pastligi bir nechta omilga bog'liqligi ko'rsatilgan. Jumladan, turli xil uy yumushlari, bola parvarishi kabi ishlarga asosan ayol professor-o'qituvchilar mas'uliyatli bo'lgani uchun ularda oila va kasb muvozanati darajasi erkak professor-o'qituvchilar oila va kasb muvozanati darajasidan pastroq ko'rsatkichlarni namoyon qildi. Bundan tashqari, turmush qurgan xodimlar ko'proq talablarga (ota-onalik mas'uliyati, er-xotinlik mas'uliyati va boshq.) ega ekani sababli o'z vaqtlarini kamroq nazorat qila olishlari uchun, ular turmush qurmagan xodimlarga qaraganda ish va ishlamaydigan faoliyatni muvozanatlashda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning natijasida turmush qurgan professor-o'qituvchilarda oila va kasb muvozanati darajasi turmush qurmagan professor-o'qituvchilarga qaraganda pastroq chiqish ehtimoli yuqoriligi isbotlandi.

Dissertatsiya ishida oila va kasb muvozanati darajasining hududiy farqlarini aniqlashga ham harakat qildik. Tadqiqot o'tkazilgan obyekt va hududlar o'rtasidagi farqli jihatlar asoslandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Oila va kasb muvozanati darajasining hududiy farqlari, ANOVA statistik tahlili bo'yicha, $n=450$

Oliy ta'lim muassasasi nomi	N	M	SD	L	Sig.	F	Sig.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	165	5.06	1.38	5.215	.004	9.104	.000
Nukus davlat pedagogika instituti	180	5.15	1.10				
Buxoro davlat pedagogika instituti	105	4.03	1.17				

Izoh: M – O'rtacha arifmetik qiymat, SD – Standart og'ish, L -Leven statistikasi, F -Fisher testi, $Sig.$ -statistik ahamiyati.

Jadvalda keltirilgan natijalariga ko'ra, oila va kasb muvozanati darajasi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor-o'qituvchilarida o'rtacha arifmetik qiymat $M=5.06$ ni tashkil etdi, Nukus davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilarida esa bu ko'rsatkich $M=5.15$ ni va Buxoro davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilarida o'rtacha arifmetik qiymat $M=4.03$ ga teng bo'ldi. Jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rish mumkinki, Nukus davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilarining oila va kasb

muvozanati darajasi jadvalda keltirilgan boshqa oliy ta'lim muassasalaridan yuqori ko'rsatkichni qayd etayotganligini ko'rish mumkin. Qayd etilgan ijobiy samaraning asosiy natijasi sifatida, mazkur tadqiqot ishi doirasida Nukus davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlaydigan dasturlarni oliy ta'lim muassasasida yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan izohlash mumkin.

Aksincha, Buxoro davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilarida kuzatilgan oila va kasb muvozanatining nisbatan quyi darajasi, mazkur tadqiqot ishida o'rganilgan boshqa oliy ta'lim muassasalari bilan solishtirilganda ahamiyatli farq kuzatildi. Buning boisi, professor o'qituvchining yangi muhitga moslashuv jarayoni mehnat sharoitlarini, imtiyozlar, qo'llab-quvvatlash va boshqalarning ahamiyati shaxs kasbiy o'sishining psixologik omillaridan birini ekanligini kuzatish mumkin. Bunday jarayonlarning barchasi professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

Dissertatsion tadqiqotda belgilangan vazifalardan yana biri oila va kasb muvozanati va ish samaradorligi o'rtasidagi aloqadorlikni asoslashdan iborat bo'ldi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Oila va kasb muvozanatining ish samaradorligi bilan aloqadorligi, Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha, n=450

Omillar	M	SD	1	2
Oila va kasb muvozanati	4.23	1.26	1	0.82***
Ish samaradorligi	4.37	1.05	0.82***	1

Izoh: * $p < 0.05$; ** $p < 0.01$; *** $p < 0.001$

M – O'rtacha arifmetik qiymat, SD – Standart og'ish

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, professor-o'qituvchilarda oila va kasb muvozanatining o'rtacha arifmetik qiymati $M=4.23$ ni, standart og'ish darajasi $SD=1.17$ ni tashkil etgan bo'lsa, ish samaradorligi darajasining o'rtacha arifmetik qiymati $M=4.37$ ni, standart og'ish darajasi bo'lsa $SD=1.26$ ni ko'rsatdi. Bu natijalardan shu narsa aniqlandiki, professor-o'qituvchilar o'rta darajadagi oila va kasb muvozanati va ish samaradorligiga ega bo'lib, o'rtacha ball maksimum 7 balldan 4.23dan 4.37gacha. Oila va kasb muvozanati uchun o'rtacha ball 4.23, bu oila va kasb muvozanati professor-o'qituvchilar faoliyatida katta darajada qo'llanishini anglatadi. Shuningdek, oila va kasb muvozanati professor-o'qituvchilarning ish samaradorligi bilan ijobiy kuchli korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Mazkur jadvaldagi statistik raqamlarda aks ettirilishiga ko'ra respondentlarda oila va kasb muvozanati darajasi oshgani sayin, ish samaradorlik darajasi ham oshib borishi kuzatildi ($r=0.82$; $p<0.001$). Yuqoridagi natijalardan oila va kasb muvozanati yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilarda ish joylarida samaradorlik darajalari ham yuqori bo'ladi, aksincha oila va kasb muvozanati past professor-o'qituvchilarda esa unumdorlik, samaradorlik darajasi ham past bo'ladi degan xulosaga kelish mumkin.

Bundan tashqari, oila va kasb muvozanatining ish samaradorligiga ta'sirini aniqroq bilish uchun tadqiqot ishimizda ko'p regressiya tahlili qo'llandi. 4-jadvalda regression koeffitsiyent tahlili natijalari berilgan. Regression koeffitsiyent bu regression tahlilning eng muhim tahliliy qismi hisoblanadi, chunki bu tahlil natijalari bizga oila va kasb muvozanatining ish samaradorligiga qanchalik darajada ta'siri bor yoki yo'qligini ko'rsatadi. Regression koeffitsiyent tahlili natijalariga ko'ra oila va kasb muvozanati ish samaradorligi bilan kuchli ijobiy bog'liqligini ko'rsatdi. Bunda standartlashtirilmagan beta $B=0.73$ ni, $p<0.001$, standartlashtirilmagan beta uchun standart xato $s.e.=0.06$ ni tashkil etdi. Ya'ni professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasi bir darajaga oshganda ularning ish samaradorligi darajasi 0.73 darajaga oshishi kuzatildi. Bu natijalar ko'rsatadiki, yaxshi oila va kasb muvozanatiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarda ish samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Bundan oila va kasb muvozanati ish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

4-jadval

Oila va kasb muvozanati hamda ish samaradorligi o'rtasidagi munosabatlarning regression tahlili, n=450

Omillar	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlashtirilgan beta koeffitsiyenti	t	Sig.
	B	SE B			
Oila va kasb muvozanati	0.73	0.06	0.82	12.13	0.000

Izoh: B- standartlashtirilmagan beta, SE B – standartlashtirilmagan beta uchun standart xato, t- t test statistikasi, Sig.- statistik ahamiyati.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida oila va kasb muvozanatining oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar ishdan qoniqishiga ta'sirining pedagogik-psixologik omillarini tadqiq etishga qaratilgan. Buning uchun professor-o'qituvchilarida «Ishdan qoniqish» savolnomalari o'tkazilib, empirik ma'lumotlar to'plandi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Oila va kasb muvozanatining ishdan qoniqish bilan aloqadorligi, Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha, n=450

Omillar	M	SD	1	2
Oila va kasb muvozanati	4.23	1.26	1	0.78***
Ishdan qoniqish	4.55	1.18	0.78***	1

Izoh: * $p < 0.05$; ** $p < 0.01$; *** $p < 0.001$

M – O'rtacha arifmetik qiymat, SD – Standart og'ish.

Jadval natijalarga ko‘ra, professor-o‘qituvchilarda ishdan qoniqish darajasining o‘rtacha arifmetik qiymati $M=4.55$ ni, standart og‘ish darajasi $SD=1.18$ ni tashkil etdi. Ishdan qoniqish uchun o‘rtacha ball 4.55, bu professor-o‘qituvchilar orasida ishdan qoniqish o‘rta darajada qo‘llanishini anglatadi.

Shuningdek, oila va kasb muvozanati professor-o‘qituvchilarning ishdan qoniqishi bilan ijobiy kuchli korrelyatsiyaga ega ekanligi tajriba natijalaridan aniqlandi. Ya’ni professor-o‘qituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularning ishdan qoniqish darajasi ortib borishi kuzatildi ($r=0.78$; $p<0.001$).

Bundan tashqari, 6-jadvaldagi regression koeffitsiyent tahlili natijalari ham oila va kasb muvozanati ishdan qoniqish bilan kuchli ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Bunda standartlashtirilmagan beta $B=0.85$ ni, $p<0.001$, standartlashtirilmagan beta uchun standart xato esa $s.e.=0.26$ ni tashkil etdi. Ya’ni professor-o‘qituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasi bir darajaga oshganda ularning ish samaradorligi darajasi 0.85 darajaga oshishi namoyon bo‘ldi. Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, yaxshi oila va kasb muvozanatiga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarda ishdan qoniqish ham yuqori bo‘ladi va, aksincha, oila va kasb muvozanati pastligi professor-o‘qituvchilarda ishdan qoniqmaslik, ishdan bo‘shash kabi holatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan oila va kasb muvozanati ishdan qoniqishga sezilarli darajada ta’sir qilishi haqida xulosaga kelish mumkin.

6-jadval

Oila va kasb muvozanati hamda ishdan qoniqish o‘rtasidagi munosabatlarning regression tahlili, $n=450$

Omillar	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlash tirilgan beta koeffitsiyenti	t	Sig.
	B	SE B			
Oila va kasb muvozanati	0.85	0.26	0.78	6.85	0.000

Izoh: B—standartlashtirilmagan beta, SE B—standartlashtirilmagan beta uchun standart xato t- t test statistikasi, Sig.- statistik ahamiyati

Dissertatsiya ishimizda oila va kasb muvozanatining oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar kasb-oila va oila-kasb nizolari bilan aloqadorligini ham aniqlashga harakat qildik. Buning uchun professor-o‘qituvchilarida «Kasb-oila nizosi» so‘rovnomasi o‘tkazilib, empirik ma’lumotlar to‘plandi (7-jadvalga qarang).

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, professor-o‘qituvchilar kasb-oila nizolarining o‘rtacha arifmetik qiymati $M=3.57$ ni, standart og‘ish $SD=1.33$ ni tashkil etgan bo‘lsa, oila-kasb nizolarining o‘rtacha arifmetik qiymati $M=3.29$ ni, standart og‘ish bo‘lsa $SD=1.28$ ni ko‘rsatdi. Bu natijalardan aniqlandiki, professor-o‘qituvchilar past darajadagi kasb-oila va oila-kasb nizolariga ega. Kasb-oila va oila-

kasb nizolari uchun o'rtacha ball maksimum 7 balldan 3.57dan 3.29gacha, bu respondentlarning kasb-oila va oila-kasb nizolariga salbiy munosabatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati ularning kasb-oila va oila-kasb nizolari bilan salbiy kuchli korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Ya'ni professor-o'qituvchilarda oila va kasb muvozanati darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning kasb-oila ($r=-0.74$; $p<0.001$) va oila-kasb nizolari ($r=-0.81$; $p<0.001$) darajasi pasayib borishi kuzatildi.

7-jadval

Oila va kasb muvozanatining kasb-oila va oila-kasb nizolari bilan aloqadorligi, Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha, n=450

Omillar	M	SD	1	2	3
Oila va kasb muvozanati	4.23	1.17	1	-0.74***	-0.81***
Kasb-oila nizolari	3.57	1.33	-0.74***	1	0.78***
Oila-kasb nizolari	3.29	1.28	-0.81***	0.78***	1

Izoh: * $p < 0.05$; ** $p < 0.01$; *** $p < 0.001$

M – O'rtacha arifmetik qiymat, SD – Standart og'ish

Shuningdek, 8-jadvalda regression koeffitsiyent tahlili natijalari ham oila va kasb muvozanati kasb-oila va oila-kasb nizolari bilan kuchli salbiy bog'liqligini ko'rsatdi. Bunda standartlashtirilmagan beta $B=-0.75$ ni, $p<0.001$, standartlashtirilmagan beta uchun standart xato $s.e.=0.09$ ni tashkil etdi. Ya'ni professor-o'qituvchilarning oila va kasb muvozanati darajasi bir darajaga oshganda ularning kasb-oila va oila-kasb nizolari darajasi -0.75 darajaga pasayishi namoyon bo'ldi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, agar professor-o'qituvchilar ko'p vaqtini ish faoliyatiga ajratsa ularda kasb-oila nizolari, va aksincha oilaviy faoliyatga ko'p vaqt ajratsa oila-kasb nizolariga sabab bo'lishi mumkin. Bundan oila va kasb muvozanati kasb-oila va oila-kasb nizolariga sezilarli darajada ta'sir qilishi haqida xulosaga kelish mumkin.

8-jadval

Oila va kasb muvozanati va kasb-oila va oila-kasb nizolari o'rtasidagi munosabatlarning regression tahlili, n=450

Omillar	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlash tirilgan beta koeffitsiyenti	t	Sig.
	B	SE B			
Oila va kasb muvozanati	-0.75	0.09	-0.78	-8.28	0.000

